

## **Amir Temur va temuriylar davrida tasviriy va amaliy san'atning ravnaqi**

**B.M. Mirkomilov- dotsent, JDPI.**

**S.R.Raimov –magistr, JDPI.**

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar davrida tasviriy va amaliy san'atning ravnaqi masalalari manbalar asosida tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Amir Temur, tasviriy san'at, amaliy san'at, miniatura, Sheroz miniatyura maktabi, Behzod, "Zafarnoma"

### **Annotation:**

This article analyzes the development of fine and applied arts during the reign of Amir Temur and the Timurids on the basis of sources.

**Keywords:** Amir Temur, fine arts, applied arts, miniature, Sheroz miniature school, Behzod, "Zafarnoma"

### **Аннотация:**

В статье анализируется развитие изобразительного и прикладного искусства в период правления Амира Темура и Темуридов.

Ключевые слова: Амир Темур, изобразительное искусство, прикладное искусство, миниатюра, школа миниатюры Шероза, Бехзод, «Зафарнома».

Amir Temur va Temuriylar davrlari tasviriy san'atning ravnaqi bilan ham namoyon bo'ladi va u turfa yo'nalishlari bo'yicha mislsiz darajada yuksaladi. To'g'ri, islom dini inson qiyofasini chizishni man etadi. Biroq Qur'oni Karimda bu xususda ochiq aytilmagan, faqatgina sanamlarga sig'inmaslik to'g'risida gap boradi hamda "ansos", ya'ni haykallarni shayton vasvasasi tufayli vujudga kelgani qayd etiladi xolos. Ammo, biroz keyinroqdagi sharhlarda shunday deyiladi: "Olloh taolo hamda inson qiyofasini chizishdan extiyot bo'ling va faqat daraxtlar, gullar va jonsiz narsalarni chizing".

Bunday qatag'on o'rta asr islom sharqining tasviriy san'atiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmas edi albatta va shunday qilib bu san'atning eng asosiy diqqat e'tibori naqshga qarab yo'naldiki, bu soha beqiyos darajada ravnaq topdi. Ammo shunday paytlar ham bo'ldiki, tasviriy san'at naqqoshlik bilan cheklanib qolmay, sufiylik muhitida taqiqlardan chetga chiqa boshladi. [ 1.Деннике Б.П. Живопись Ирана. М., 1933, с.8]. XI-XIV asr Eronning Ray va Koshon kulollari yaratgan buyumlarda bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu idishlarda bir-ikkita qiyofagina emas, balki xalq dostonlari va she'riyat lavhalari namoyon bo'ladi.

Movarounnahrda kelsak, inson qiyofasini aks ettirish ommaviy ijodda qat'iy hukm surib kelgan bo'lsa, Amir Temur davriga kelib jamiyatning sara tabaqasi vakillari bu ta'qiqni chetlab o'tadilar. Ehtimol, Temurning o'zi ham bu o'rinda ta'sirga ega bo'lgandir. Zero, Amir Temur saltanatida miniaturachilik san'ati qo'lyozma adabiyotning ajralmas bir qismiga aylanib qolgan edi. Ayni vaqtda devoriy suratlar chizish san'ati ham tiklansada, biroq u ko'p davom etmaydi, XVI asrga borib to'xtaydi.

Ibn Arabshoh, o'z asarida Amir Temurning Samarqanddagi saroylarida bir qancha devoriy suratlar bo'lganini yozadi. Ularda saroydagi qabul marosimlari, jang voqealari, shikor manzaralari, xalq bayramlari va hattoki oshiqu- moshiq uchrashuvlari tasvir etilgan. Arabshoh, Amir Temur, uning o'g'illari va nabiralari, ayollari va kanizaklari tasvirini ham bayon qiladi. Albatta, bular barchasi Amir Temur buyrug'i bilan chizilgan bo'lib, uning naqadar ulug'vor shaxs ekanligini ko'rsatib turgan. Zero Arabshohning ta'kidlashicha, "Uni shu kungacha bilmagan va g'arbu sharqdan kelgan elchilar o'zlarini go'yo Amir Temur olamiga kirib qolganday xis qilsinlar. Amir Temurning ezgu niyati shu edi". [2. Ibn Arabshah. Tamerlan of Timur the Great Amir. Transl. bu H. Sanders. London, 1936, p.314.]

Bog'i Shamol saroyini bezagan devoriy suratlar xususida esa Sharafuddin Ali Yazdiy o'ta ko'tarinki ruhda yozsada, u yerda aks etgan lavhalarning mavzusini aniq keltirmaydi, faqatgina bu suratlarni ishlashga o'z davrida Eron va Iroqda mashhur bo'lgan musavvirlar taklif etilganini ta'kidlaydi. XIV asr Bag'dod va

Sheroz miniatyura maktablarining mavjud bo'lgani esa Eron va Iroq mamlakatlarida ajoyib san'atkorlar yetishib chiqqanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mirzo Ulug'bek davridagi rassomchilik haqida Abdurazzoq Samarqandiy xabar berar ekan, u Samarqanddagi rasadxonada to'qqizta falak shaklu- shamoyili, etti gardish, yetti yoritkich (yulduz) daraja, daqiqa, soniyalari va uning bo'limlari, shuningdek yer yuzi yetti iqlimi, tog'lari, dengizlari, cho'llari ila tasvirlanganini bayon qiladi.

Bular barchasi Mirzo Ulug'bek davrida ham devoriy suratlar mavzui jihatdan boy va rang-barang bo'lganidan darak beradi. Uning qaysi bir uslub masalasini ochadigan bo'lsak, bu deyarli miniatyura san'ati janriga yaqin turgani ayon bo'ladi. Zero Abdurahmon as-Sufiyning (X asr) falakiyotga oid asari Mirzo Ulug'bek davrida qayta ko'chirildi. Unda tasvirlangan bir suratda esa Andromeda yulduzlar turkumi chochlik ayol qiyofasida namoyon bo'ladi.

Temur davridan Samarqanddagi uchta - Shirinbeka oka, Bibixonim va Tuman og'a maqbaralaridagi tasvirlar bizgacha yetib kelgan. [3. Давыдов С.С. этюд по иконографии самаркандских пейзажей XIV-XV вв. В кн.: Культура Среднего Востока. Изобразительное и прикладное искусство –Ташкент, 1989, с. 116 сл.]. Ularda naqqoshlik va hattotlik san'ati namunalari bilan bir qatorda tasviriy lavhalar ham mavjuddir. Shirinbeka og'a maqbarasida ko'p rangli surat bo'lsa, qolgan ikki bino devorlarida faqatgina oq va moviy ranglardan foydalanilgan. Bularda palmadan tortib terakkacha xilma-xil manzarali va mevali daraxtlar chizilgan. Ularning ayrimlari gullab turgan bo'lsa, boshqalari hosili yetilgan, buta va giyohlar yashnab turibdi. Rassom nihoyatda yengil bir manzarani ko'z oldingizga keltirib qo'yadi: daraxt shoxlari sal egilib turibdi go'yo yengil shabada esayotgandek. Bunday devoriy suratlar go'yo bino ichidan boqqa ochilgan derazani eslatadi. Bu esa oddiy boqqina emas, balki firdavsi parodiz, ya'ni sukunatga g'arq bo'lgan bog'dir. Sherozda yaratilgan she'riy majmua asaridagi bog' tasviri aynan shu ruxda chizilganki, devoriy suratlarning kitob miniatyuralariga nihoyatda yaqin turganligini tasdiqlaydi. As-Sufiy asaridagi surat ham bunga asos bo'la oladi.

Miniatyura rassomchiligi bu san'at eng avvalo Temur va Ulug'bek davrida qo'lyozma asarlar va shu bilan bog'liq hattotlik san'atining ma'naviy hayotda nihoyatda yuksak o'rni bilan barobar baholanadi. Zero, hattotlik hunarmandchilik bilan aqliy mehnat oralig'idagi alohida bir kasb hisoblanardi. O'ta nafis hattotlar saroylar va madrasalar qoshidagi kitobxonalarda ishlashardi. Biroq, shuni ham aytish kerakki xalq o'rtasida keng ommalashgan kitoblar -Qur'oni Karim va Xadisi Sharif, shuningdek, Hofiz, Bedil, Sa'diy, Jomiy, Navoiy devonlari va kulliyotlariga talab katta edi. Shu bois ushbu kitoblar o'z uyi yoki bevosita bozordagi do'konlarda ishlaydigan hattotlar tomonidan ko'chirib beriladi. Hattotlarning alohida bir qismi esa maktubotlar, arzlar, bayonnomalar, vaqf hujjatlarini ko'chirish bilan shug'ullanishardi. Umuman olganda esa hattotlik ommaning amaliy ehtiyoji bilan badiiy san'at o'rtasida turardi. Ayni XV asrda an'anaviy qo'llanib kelingan nasxi, kufiy, devoriy xatlari bilan birga peshtoqlarni bezovchi suls va tezkor - nastalik temuriylar saroylarida eng noyob qo'lyozma asarlar ko'chiriladigan maxsus ustaxonalar kitobchilikning ravnaq topishiga xizmat qilganligidan dalolat beradi. Ularda mahalliy va qo'shni Sharq mamlakatlaridan kelgan mashhur hattotlar, miniatyurachi rassomlar, sahhoflar, muzahhiblar ishlashgan.

Amir Temur davrida Samarqandda o'ziga xos miniatyura rassomchilik maktabi qaror topdi. Bu yerda gap faqatgina estetik tuyg'u tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan maktab xususidagina emas, balki asl ma'nodagi maktab haqida bormoqda. Turkiyadagi To'pqopi Saroy va Berlin kutubxonalarida saqlanayotgan "Stambul albomi"dagi ko'chirma va xomaki miniatyura nusxalari shundan dalolat beradi. XIV-XV asrga oid bu xomaki nusxalar noziklik bilan alohida shaxslar, daraxtlar, gullar, naqshlar, kichik kompozitsiyalardan iborat bo'lib, nihoyatda zukko ustalar tarafidan qog'ozga tushirilgan hamda shogird rassomlar ulardan nusxa ko'chirish bilan ishni davom ettiraverishgan. Bu rasmlardagi chiziqlar uyg'unligi, xatti-harakatlarning aniq berilishi, har bir qiyofani o'sha to'g'ri turtburchak sahifada o'z o'rnini topib joylashtirilishi ustoz rassomlarning bemisl mahoratidan dalolat beradi.

Miniatyura rassomchiligi - sharq tasviriy san'atining eng ajoyib san'atlaridan hisoblanadi. Hozirgi zamon tadqiqotchilari esa uning tasviriy ma'nosini turlicha talqin etishadi. Ayrimlar miniatyurani she'riyat, tarix, ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyatiga, voqea-hodisalarni ko'rgazmali ravishda berish jihatiga e'tiborni qaratishsa, boshqa bir guruh vakillari miniatyuralardagi kompozitsiya, obrazlar, ayrim detallar sufiylik ta'limotiga xos haqqa yetishish yo'lidagi sa'yi harakatlarni ifodalaydi, deb baho beradilar.

Zero, XVI-XVII asrlarda yashab o'tgan olim Ahmad miniatyurachi rassomlar va bezakchi hattotlar xususida shunday yozgan edi:

"Shu narsa ayon bo'ladiki, mazkur san'at ustalarining kishini hayratda qoldiradigan fikrlari va g'aroyib g'oyalari barcha viloyatlarda ma'lum va barcha ziyoli kishilarning diqqat-e'tiboriga molikdir. San'at kishilarining hech qaysisiga huddi mana shu mo'yqalam sohiblaridagi kabi kuchli tafakkur va iste'dod nozikligi nasib bo'lmagan. Musavvir lavhalarida ifodasini topayotgan obrazlarni hech kim bu qadar go'zallik oinasiga tushirib berolmaydi".[4. Кази Ахмад. Трактат о каллиграфях и художниках. Введение, перевод и примечания Б.Н. Захедера. М., 1947, с.177]. Bu o'rinda muallif suratlardagi ramziy ifodalarga emas, balki predmet-obrazli ifodasiga e'tiborni qaratadi. Zero o'z davrida omma bu rasmlarni to'g'ridan-to'g'ri qabul qilavergan, ya'ni uning sufiylik bilan aloqasi bormi, yo'qmi, bu ikkilamchi xol deb qaraladi. Shu o'rinda Vosifiyning bir hikoyati o'rinlidir. Alisher Navoiy qoshidagi bir majlisga musavvir Behzod endigina tugatgan bir miniatyurani olib keladi. Unda shoir gullagan bog' ichida tasvirlanadi. Navoiy bu suratni yig'ilganlarga ko'rsatib fikr so'rganida shunday olqishlarni eshitadi. Suhbatdoshlardan biri bu suratni ko'rib, undagi gullardan birini uzib o'z sallasiga qistirib olmoqchi bo'lganini, ikkinchisi - shu gullarga qo'l uzatsa daraxt shohidagi qushlarni cho'chitib yuboraman deya xayolga borganini, eshik oldida o'tirgan uchinchisi esa bu xolatda Navoiyning qoshlari chimirilgandek bo'lganini, to'rtinchisi esa, Navoiy qo'lidagi asoni olib gulni uzmoqchi bo'lgan kishini urishga hozir ekanligini bayon etadilar. [5. Болдырев А.Н. Алишер Навои в рассказах современников. В кн.: Алишер Навои. М.Л., 1946, с. 151-1] Real tarixiy

shaxslarning musavvirlar tarafidan ifoda etilishi qator miniatyuralarda namoyon bo‘ladi. Amir Temur qiyofasining aks ettirilishi buning misolidir. Amir Temur qiyofasi tiriklik vaqtida aks etgan miniatyuralar xali topilmagan. Biroq, asl xolatiga yaqin chizilgan suratlar "Zafarnoma"ning dastlabki ko‘chirilgan nusxalarida uchraydi. Shunday asarlardan biri Sherozda 939 x. (1435 m.) yilda ko‘chirilgan bo‘lib, uning atrofini qurshab olgan odamlarning kiyim- kechaklari - baland oq kulohi shundan dalolat beradi.

Temurning birmuncha yorqin ifodali qiyofasi Hirot shahrida 872 hijriy. (1467-68 milodiy.) yili ko‘chirilgan "Zafarnoma" asarida keltiriladi. (Terrot, Baltimor kolleksiyasi). Ushbu miniatyura Behzod tomonidan yigirma yil muqaddam qog‘ozga tushirilgani ehtimol qilinib, musavvirning ilk asarlaridagi uslubga ancha yaqin turadi. Biroq bunday ajoyib asarning uzoq vaqt chizilmay qolgani esa, balki asl chizgilarini Behzodning ustoz Miroq Naqqosh qog‘ozga tushirgan bo‘lishi mumkin degan muloxazani tug‘diradi. Ushbu miniatyura boshqalaridan juda gavjum kompozitsiya va serjilo buyoqlarining uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Shu o‘rinda rassom Amir Temur saroyining devorida aks ettirilgan va Ibn Arabshoh yozib qoldirgan lavhalardagi qiyofa va xodisalarni aks ettirmaganmi, degan savol tug‘iladi. Ammo har ikkala miniatyura yaratilishida orada ancha vaqt o‘tganiga qaramay, Temurning hayotlik chog‘idagi qiyofasini yaqinroq ifodalaydi, deb ayta olamiz.

Xulosa shundan iboratki, Amir Temur va temuriylar davrida tasviriy va amaliy san‘at o‘z rivojining yuqori darajasiga yetgan. Umuman olganda Temur va Temuriylar davridagi amaliy san‘atning bizgacha etib kelgan ayrim namunalarning o‘zi ham mamlakatdagi barqarorlik vaziyatidan dalolat beradi hamda xalq hunarmanchiligi bu soxada naqadar buyuk yutuqlarga erisha olganligining yaqqol timsoli bo‘lib xizmat qiladi.